

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

10-son (oktabr 2024)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2024

qoniy va xolis axborot yetkazib berish”. Undan tashqari, aholi orasidagi turli noaniqliklarga chek qo’yish, noto’g’ri axborotga tegishli munosabat bildirish imkonini yaratadi. Mazkur lavha orqali shu savollarga javob berilgan.

Lavha professional nuqtayi nazardan yaxshi tayyorlangan: a) standap bor; b) sinxronlar bor; d) tahli-
liy yondashuv bor; e) infografikadan yuqori darajada foydalanilgan. Muallif foydali va dolzarb faktlarni qi-
zizarli tarzda keltirib o’tgan. Bu esa telesujetning tomoshabinbopligini oshirgan.

1. Telefonlar narxi – 10–15%.
2. Maishiy texnika – 20–30%.
3. Mato va trikotaj mahsulotlari – 15–20%.
4. Kiyim-kechaklar – 3–4%.
5. Chinni buyumlar – 15–20% arzonlashgani yangicha usulda berilgan.

Lavha davomida boshqa ma’lumotlar ham ana shunday ko’rinishda taqdim etilgan. Do’konlar ija-
rasidan tushayotgan mablag’lar haqida so’z borar ekan, “Abu saxiy” majmuasidan tushgan mablag’ 381
mln.ni tashkil qilgan bo’lsa, “Toshkent savdo markazi”dan tushgan mablag’ 1,9 mlrd so’zni tashkil etgani
qiyoslanib, diagrammada berilgan. Tushumlar 5 baravarga oshganligi qayd qilingan. Boshqa turdagi ijara-
lardan tushgan mablag’ 307 mln.ni tashkil etgan bo’lsa, hozirda 1.3 mlrd.ga yetgan. Farq 4 barobar. Rek-
lamalar joylashtirish uchun maydonlar ijarasi 30 barobarga oshgani keltirib o’tilgan.

Xulosa va takliflar. Bir so’z bilan aytganda, lavhada zamonaviy telejurnalistikada keng qo’llanila-
yotgan infoteynmentdan samarali foydalanilgan. Infoteynment tomoshabinga axborot, ma’lumot berish bi-
lan birga, uning qalbiga yo’l topib, ko’nglini ko’taradi, estetik zavq beradi. Infoteynment jahon teleamali-
yotchilari, teletanqidchilari leksikasi, til zahirasiga kirib bo’ldi. Unda fikr, g’oya va yangilikni qanday bo’l-
sa xuddi shunday shaklda emas, balki teletomoshabin ta’biga xush keladigan, uni diqqatini o’ziga jalb qilib,
unga ma’qul bo’ladigan, qiziqarli, jozibali qilib berish infoteynmentning asosini, mag’zini tashkil etadi.
Bugun nodavlat telekanallar infoteynmentdan maksimal foydalanib, media bozorida mustahkam o’rin egal-
lamoqda. Davlat telekanallari esa axborotni jozibali yetkazish usuli – infoteynmentga yaxshi e’tibor berma-
gani bois, auditoriyasini yo’qotayotgani ham bor gap. Bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilishi va media strate-
giyalari ishlab chiqilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- (1). Кузнецов Г.В., Цвик В.Л., Юровский А.Я. Телевизионная журналистика. 4-е изд. М., изд-во МГУ, 2004, с. 36–52.
- (2). Oxford English dictionary // <http://www.oed.com/view/Entry/242310>
- (3). Roget’s Thesaurus // <http://thesaurus.com/browse/infomercial?S=t>
- (4). Upshaw J. Infotainment / Encyclopedia of television news /Ed. By M.D. Murray. Phoenix, Arizona. 1999, p. 103–105.
- (5). http://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/o'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20G%20harfi.pdf
- (6). https://top_english.academic.ru/42754/infotainment, 24.05.2018.
- (7). Кэрролл Маккаллах, Виктория. Новости на TV : пер. с англ. В.Кэрролл Маккаллах. Москва, “Мир”, 2000, 285 с.: ил. (мультимедиа для профи). Пер. изд. Writing news for television. Style and format. Carrol mccul-
lough V.
- (8). “Axborot 24”, 22.02.2018.

**Artikova Yulduz Akmalovna (O’zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Axborot xizmati va jamoatchilik
bilan aloqalar” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; ortiqovayulduz@gmail.com)**
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SPORTNING O’RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat evolyutsiyasida jismoniy tarbiya va sportning tutgan o’rni
va ahamiyati tadqiq etiladi. Jumladan, taraqqiyot natijasida farzand tarbiyasi hamda shaxs shakllanishida
sport qanday o’rin tutgani bo’yicha mulohazalar yurutuladi. Maqolda zamonaviy sportning jamiyat taraqqi-
yotidagi o’rni qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: jamiyat, taraqqiyot, barkamol avlod, tarix, farzand, sport, shaxs, Olimpiya o’yinlari,
jismoniy tarbiya, madaniyat, sog’lom turmush tarzi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СПОРТА В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение физического воспитания и
спорта в эволюции общества. В частности, в результате разработки рассматриваются роль

спорта в воспитании детей и формировании личности. В статье сравнивается роль современного спорта в развитии общества.

Ключевые слова: общество, развитие, здоровое поколение, история, ребенок, спорт, личность, Олимпийские игры, физическое воспитание, культура, здоровый образ жизни.

THE ROLE AND IMPORTANCY OF SPORTS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Annotation. This article examines the role and importance of physical education and sports in the evolution of society. In particular, as a result of development, considerations are made on the role of sport in child education and personality formation. The article compares the role of modern sports in the development of society.

Keywords: society, development, healthy generation, history, child, sport, personality, Olympic Games, physical education, culture, healthy lifestyle.

Kirish. Bugun respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan o'g'il va qizlarning safi tobora kengaymoqda, ular tomonidan qo'lga kiritayotgan sovrinlar miqdori, ayniqsa, so'nggi yillarda sezilarli darajada ko'paydi. Jahonning eng yirik va nufuzli sport musobaqalarida O'zbekiston vakillari keng va faol ishtirok etishmoqda. Bir paytlar yurtimiz sportchilari faqat orzu qilgan Olimpiada musobaqalari, jahon va qit'a chempionatlarida bugun istiqbol farzandlari – yosh sportchilarimiz sovrinli o'rinnlarni qo'lga kiritishmoqda. Sport bugun yurtimiz ta'lim-tarbiya tizimining uzviy qismiga aylangani alohida tahsinga loyiq. Yoshlar orasida suzish, baydarka va kanoyeda eshkak eshish, akademik eshkak eshish, dzyudo, badiiy gimnastika, futbol, minifutbol, stol tennisi, kurash, yunon-rum kurashi, boks, yengil atletika singari sport turlariga qiziqish tobora ortmoqda. Yurtimizda o'tgan yillarda sport majmualari barpo etish borasida ulkan tajriba to'plandi. Bugun eng chekka hududlarda qad rostlayotgan sport inshootlari ham xalqaro talablarga to'la javob beradi. Sport majmualarining deyarli barchasi yurtimizda ishlab chiqarilgan sport inventarlari bilan jihozlanmoqda. Bolalarni sport bilan shug'ullanishi ularning nafaqat salomatligida, ayni paytda qaddiqomati to'g'ri shakllanishida, yurish-turishida juda muhimdir. Bolalarning sog'lom bo'lib ulg'ayishi ertangi kunimizning, dunyoga keladigan barkamol avlodning muhim omillaridandir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan ma'nau yetuk, jismonan barkamol avlodning voyaga yetishiga bog'liq. Har bir tuzum, har qaysi davr jamiyatida ertangi kunning poydevorini yaratishga intilishi tabiiy. Tarixdan ma'lumki, har qanday jamiyatda hukmron qatlam farzandlari alohida e'tibor bilan parvarish qilingan. Oddiy xalqqa esa, yuqori tabaqa kishilarining farovon hayotini ta'minlovchilari sifatida qaralgan. XIX–XX asrlarga kelib, tabaqalanishning turli ko'rinishlari bartaraf etilib, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi va yoshidan qat'i nazar barchaning ta'lim olishi, jamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishiga intilishning qonuniy belgilab berilishi - barkamol avlod haqida qayg'urish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunga kelib, ham ma'nau, ham jismonan barkamollikka intilish – qaysidir oliy tabaqaga mansub kishilarning shohona imkoniyati va imtiyozlari emas, balki bu har bir shaxs, har bir individning fuqarolik burchi va vazifasiga aylandi. Tarixga nazar solsak, Yevropada, aynan, XIX asrning oxiriga kelib, Qadimgi Yunoniston diniy marosimlaridan biri bo'lgan Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi hamda uning dunyo bo'ylab tarqalishi sport, ya'ni jismoniy tarbiya madaniyatiga bo'lgan yangicha qarashlarga asos soldi [5]. Bunda hammabop sport turlari qatori oliy tabaqa kishilariga xos sport turlarining ommalashishi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har qanday odam o'zining kuchi va qobiliyatini namoyish qilib, jamiyatdagi o'rni va obro'siga ega bo'lishiga imkoniyat yaratdi. Shu bilan birga, avom xalqning ko'ngilxushligi deb hisoblangan ba'zi bellashuvlar sport turi sifatida tan olinib boshladi. Sportga, jismoniy tarbiya madaniyatiga berilayotgan e'tibor natijasida, aynan shu davrda, sport jurnalistikasi shakllandi, rivojlandi, ommalashdi va taraqqiy etib boshladi.

Tarixni kuzatar ekansiz, sportning rivojlanishi sport jurnalistikasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin. Qaysi mamlakatda sportga davlat siyosati darajasida e'tibor berilar ekan, o'sha yurtda sportni OAV yordamida keng yoritilishi, targ'ib qilinishini ham kuzatish mumkin. Bunda sportni ma'lum bir moddiy manfaat maqsadida targ'ib qilish emas, balki sog'lom turmush tarzi garovi sifatida ommalashtirishda chuqur insoniy, falsafiy, axloqiy mazmun mujassamligi diqqatga sazovordir. Bugungi kunda professional sportchilarning natija, medal va o'rin uchun bahs olib boriladigan Olimpiya o'yinlarini qayta tiklagan Per de Kuberten ham, dunyo hamjamiyatini tinchlik va hamjihatlikka chorlagan holda, yosh avlodning jismoniy tarbiyasi, aholining umumiy salomatligi haqida qayg'urgan edi.[5] Hozirgi kunga kelib Olimpiya o'yinlari qatoridan joy olish – u yoki bu sport turining qaysidir ma'noda nufuzini belgilab, uning dunyo bo'ylab tarqalishiga zamin hozirlaydi. Shu bilan birga, Olimpiya o'yinlarini yoritish, shu mavzuni tahlil qilish ham, barcha OAV xodimlari uchun g'oyatda obro'li, tajriba va mahorat talab qiladigan soha sifatida tan olinmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin, bolalar sportini rivojlantirish, kelajak avlodning ham jismolan, ham ma'nan barkamol bo'lib voyaga yetishiga katta e'tibor qaratildi. Dunyoda tengsiz bo'lgan bolalar sportini rivojlantirish tizimi yaratildi. Bunda 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni sportga jalb qilish, xotin-qizlar sportini ommalashtirish, yoshlarni jamiyatda o'z o'rinlarini topishda sportga oshno qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda mevasini bermoqda. Sportchilarimizning xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlari buning yorqin tasdig'idir. Shu bilan birga, yurtimizda sport jurnalistikasi - jurnalistikaning alohida ko'rinishi, o'ziga xos yo'nalishi sifatida taraqqiy etib boshladi. 1932-yildan beri chop etiladigan "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetasi 1993-yildan boshlab o'zbek va rus tillarida "Sport" nashri sifatida keng ommaga havola qilina boshladi. 2004 yilda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tasarrufida «Sport» telekanalining tashkil etilishi, o'zbek sport jurnalistikasini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi [2]. Bugungi kunga kelib 24 soat, ya'ni, tunu kun davomida faoliyat ko'rsatayotgan bu telekanal yurtimizda hamda dunyoda sodir bo'layotgan barcha sport voqealarni yoritish, tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga sportni ommalashtirishga qaratilgan bir qator turkum ko'rsatuvlar sport jurnalistikasining o'ziga xos janrlari, rukn va yo'nalishlarini shakllanishi uchun poydevor yaratdi. Yurtimizda sport sohasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni targ'ib qilish va ommalashtirish ko'p jihatdan sport jurnalistikasi qay darajada rivojlanganligini ko'rsatib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda sportning ommalashishi, sport jurnalistikasining taraqqiyoti bugungi kunda qanday ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyaga ega ekanligi borasidagi savolga javob berish o'rinli. O'tgan asrda sport muayyan bir soha, ilmiy izlanish va nazariy yo'nalish sifatida tan olindi. Sport tibbiyoti, sport psixologiyasi kabi fan sohalarining rivojlanishini, sport anjomlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona va tashkilotlarning faoliyati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bularning bari sport sohasining jamiyatda o'z o'rnini borligini isbotlaydi.

Axborot asri, globallashuv davri deb nom olgan bugungi kunga kelib giyohvandlik, OITS kabi bedavo dardlar o'z yechimini kutar ekan, ularning oldini olish chora tadbirlari samarali yechim bo'lmoqda. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, sport bilan shug'ullanish bu masalaning eng sodd va hammabop javoblaridan biridir. Shu bilan birga, kamharakatlik, undan kelib chiqadigan turli salbiy oqibatlar ham, aynan, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish yordamida yechimini topadi. Yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazish bilan katta miqdordagi cheklanmagan va saralanmagan axborot oqimidan himoya qilish, turli siyosiy guruhlarga, zararli oqimlarga qo'shilishdan saqlab qolish imkoniyatini beradi. Bu kabi tadbirlarni sanash, qatorini to'ldirishni uzoq davom ettirish mumkin.

Texnika taraqqiy etgan bugungi davr nafaqat jismonan sog'lom, balki imkoniyati cheklangan odamlarning sport bilan shug'ullanishi hamda turli musobaqalarda qatnashishlari uchun sharoit hozirlamoqda. Ular jamiyatda o'z o'rinlarini topishga, kimgadir boqimanda bo'lmay jamiyatimizning teng xuquqli a'zosi sifatida hayot kechirishga intilmoqdalar. Shu bilan birga, bolalarda ko'p uchraydigan, ba'zan jarrohlik yo'li bilan shifo topiladigan kasalliklar ham, aynan, sport mashg'ulotlari yordamida bartaraf etilayotgani bugungi kunda jismoniy tarbiyaning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Xulosa va takliflar. Ba'zilar katta sport deganda, professional sportning salbiy oqibatlarini: sportchilarning jarohatlaridan tortib musobaqalarning shou-biznesga aylanib ketganligini nazarda tutadilar. Professional sport ma'lum bir shaxs yoki tadbirkorning pul tikish va undan daromad olish manbaiga aylanganligi, gohida atletlar qo'lga kiritgan jismoniy kuch va imkoniyatlarini shaxsiy manfaat uchun foydalanishlari sportning nohush jihatlari sifatida sanaladi. Aslida esa, bu kabi illatlar sport jurnalistikasining yetarlicha rivojlanmaganligi, bu sohada chuqur tahliliy materiallar tayyorlanmaganligi, sohaga oid ma'lumotlar ommaga taqdim etilmayotganligidan dalolat beradi. Demak, bugungi kunda sport jurnalistikasining rivojlanishi sportning taraqqiy etishida paydo bo'lishi muqarrar bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish, ularning oldini olishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, bugungi kunda sport jurnalistikasining ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy ahamiyati katta bo'layotganligini, sohadagi yangiliklarni yoritish, tahlil qilish, ommaga xolis va haqqoniy yetkazib berishda tutgan o'rnini beqiyos ekanligini ta'kidlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Donskoy D. Роль и место спортивной журналистики в системе СМИ США. Diss. k.f.n., M., 2008.
- (2). Ro'ziyev F. Jo'rayeva X. Telejurnalistga tavsiyalar. T., «Sharq», 2013.
- (3). Mak Chesni Robert. Istoriya sportivnoy jurnalistiki v SSHA. http://en.wikipedia.org/wiki/Robert_W_McChesney.
- (4). Xurshid Do'stmuhammad, "Axborot-mo'jiza, joziba, falsafa". "Yangi asr avlodi", 2013.